

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI DARSLARNI TASHKIL ETISHDA
MANTIQUIY TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

R.M.Tolipov
QDPI o'qituvchisi
D.A.Muhtorova
QDPI talabasi

Sinfdan tashqari mashgulotlar o'tkazilish shakliga ko'ra darslaridan farq qiladi va ko'pincha qiziqarlilik xarakteriga ega bo'ladi. O'g'zaki hisob ko'pincha sinfdagi hamma o'quvchilarning «yana, yana» degan istaklari bilan o'tkaziladi. o'quvchilarning talabiga ko'ra, darsda boshlangan ishlarning davomini darsdan tashqari vaqtga ko'chirish mumkin. o'quvchilar bilan o'tkaziladigan sinfdan tashqari mashgulotlarni oldin ularning talabiga ko'ra, so'ngra yechiladigan misol, masalalar, o'yin va qiziqishni orttirishga qarab oyida ikki marta sistemali o'tkazib turish mumkin. Chunki dasturni bajarishda bunday qiziqarli masalalarni yechish, o'yinlarni tashkil qilish, topishmoqlar topish, tez hisoblash mashgulotlarini darsda ko'proq o'tkazishga imkoniyat yo'q. Tajribalar bizni shu narsaga ishontiradiki, o'quvchilar qiziqarli matematika soatlarida odatdagi darslarga qaraganda kamroq charchaydilar va ko'tarinki ruhda ishlaydilar.

Bunday mashgulotni tashkil qilish va jihozlash qiziqarli va ravshan bo'lishi kerak. Bu masalalarda qiziqarli matematikaga doir ko'rsatma qurollar, sanash jadvallari, figuralarni sanash, plakat formasidagi o'yinlar, stol ustida o'ynaladigan o'yinlar, labirintlar, kartondan geometrik figuralar yasash, krossvordlar va boshqalar o'quvchilarga katta yordam beradi.

Mantiqiy fikrlashni shakllantirish boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallarni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanish uchun har bir tushunchaning mohiyati, mazmuni va uning o'quvchilar amaliy tajribasiga asoslanilishi hamda ko'rgazmalilikning keng yo'lga qo'yilishi, taqqoslash, xulosa chiqarish va konkretlashtirishga o'rgatish bo'lish usullarining o'rganilishi bilan birga umuman boshqa amallardagi o'xshash qonuniyatlarni taqqoslash asosida keltirib chiqarishga hamda mashq va misollarni yechishni tahlil qilish asosida o'rgatilishi, xatolar ustida ishlash va ularning barchasidan samarali foydalanish asosini tashkil etadi. Shu jumladan boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalar yechish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida berilgan mantiqiy masalalar ko'rib chiqaylik.

I. O'ylab top.

Uchta g'oz bizning ustimizdan uchdi. Yana uchasi bulut ustidan uchdi. Ikkitasi suv bo'yiga tushdi. Bu g'ozlarning nechtasi havoda qoldi?

II. Quyidagi topishmoqlarni toping va qiziqarli masalalarni yeching.

1. *Yo'limni yoritar ikki chiroqcha, chiroqcha ustida pilik qalamcha. Bular nima? (ko'z, qosh).*

2. *Ikkita uchi boru, ikkita xalqasi, o'rtasida esa bitta mixchasi. Bu nima? (qaychi).*

Mantiqiy savol va masalalar namunalar.

1. Balandligi 10 metr bo'lgan narvondan sakrab, umuman jarohat olmaslik uchun nima qilish kerak?

2. Ikki ota va ikki o'g'il yo'lda ketayotib, 3 ta olma topib olishdi. Ularning har biriga bittadan olma tegdi. Bu qanday sodir bo'ldi?

3. $2+2*2$ ning javobi necha bo'ladi?

4. Uning balandligi ham, bo'yi ham, eni ham yo'q, lekin uni o'lchasa bo'ladi. U nima?

Adabiyotlar ro'yxati.

1.Tolipov R., Yusupov M. THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE FORM OF EDUCATION IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 1633-1637.

2.Normatov A. A., Tolipov R. M., Musayeva S. H. Q. MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINI O 'QITISHNING DOLZARB MASALALARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 1068-1075.

3.Mamasolievich T. R. PECULIARITIES AND TYPES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN MATHEMATICS IN ELEMENTARY GRADES //Conferencea. – 2023. – C. 102-107.

4.Толипов Р. М. СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ ИНДУКЦИИ, ДЕДУКЦИИ И АНАЛОГИИ ПРИ РЕШЕНИИ ПРИМЕРОВ И ЗАДАЧ В МЛАДШИХ КЛАССАХ //E Global Congress. – 2023. – №. 2. – C. 36-46.

Mamasoliyevich T. R. BOSHLANG 'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YINLAR ORQALI DARSLARNI TASHKIL ETISH DARS SAMARADORLIGINI MUHIM OMILI //Ustozlar uchun. – 2023. – T. 19. – №. 2. – C. 195-201.

5.Tolipov R. Characteristics of the levels of formation of the control action in younger schoolchildren //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 11. – C. 92-99.

6.R.M T. et al. BOSHLANG 'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH VA XUSUSIYATLARI //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2023. – C. 116-122

7.R.M T., Roziqova Z. O., Yusubjonova D. Q. KOORDINATLAR SISTEMASI ORQALI TO'G'RI CHIZIQ VA TEKISLIK ORASIDAGI MASOFALARNI TOPISHGA DOIR BA'ZI BIR AMALIY MASALALAR YECHIMLARI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 24. – C. 371-376.

8.R.M T. UCHBURCHAK VA AYLANA DOIR TUSHUNCHALAR VA ULARGA DOIR BA'ZI AMALIY MASALALAR YECHISH //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 24. – C. 377-384.

9.Mamasoliyevich T. R., Gulruh J. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'QUVCHILARNI KOMBINATORIKA MASALALARINI YECHISHGA O 'RGATISHNING INNOVATSION USULLARI //Conferencea. – 2023. – C. 63-68.

10.Tolipov R. THE CONCEPT OF INTEGRATION IN THE APPROACH TO MATHEMATICS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B3. – C. 284-288.

11. Raxmankulova N., Mirzanazarova S. DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – T. 2. – №. 1.

12. Rakhmonkulova N. K. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades //International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.

13. Raxmankulova N. X. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age //World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023. – T. 2. – №. 3. – S. 41-46.